

DETEKTIV JANRINING TARAQQIYOTI VA TIL XUSUSIYATLARI

Barno Sotimova

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent Davlat o'zbek
tili va adabiyoti universiteti ona tili va adabiyot*

ta'limi fakulteti 4-bosqich talabasi

Email: sotimovabarno9@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek adabiyotida rivojlanayotgan detektivka yo'nalishining tarixi, mazmuni beriladi. Shu o'rinda janrdagi sotsial so'zlarning muqobil namunalarining til xususiyatlariga ham to'xtalib o'tiladi. Ushbu maqola tilshunoslar, kitobxonlar va keng ommaga mo'ljallangan.

Kalit so'zlar: detektivka, agentlik, detektiv, norma, kulminatsion, alibi, politsiya, versiya.

THE DEVELOPMENT OF THE DETECTIVE GENRE AND LANGUAGE CHARACTERISTICS

Abstract. This article presents the history and content of the developing detective genre in Uzbek literature. At this point, alternative examples of social words in the genre are also discussed. An article for linguists, readers and the general public.

Key words: detective story, agency, detective, norm, climax, alibi, police, version.



Detektivka bu - lotincha soʻzdan olingan boʻlib, "detectio" yaʼni "oshkor qilish", "kashf qilish" degan maʼnoni anglatib, asosan sirli voqeani tergov qilish jarayonini tasvirlaydigan adabiy janrdir. Til xususiyati boʻyicha bu soʻz chetdan oʻz holicha oʻzlashgan boʻlsada, oʻzbek tilshunosligida izidan quvlangan yaʼni izquvarlik birligiga toʻgʻri keladi.

Ushbu janrning tarixiga nazar tashlaydigan boʻlsak, XIX-asrgacha dunyoda shahar politsiya tizimi kam boʻlgan, garchi 1667-yilda Parij shahrida politsiya yaʼni ichki ishlar boʻlimi boʻlgan boʻlsa-da, unda ishlaydigan odamlar: nomutaxassis, koʻngillilardan iborat boʻlgan.

Dunyoda birinchi xususiy detektiv agentlikka, yaʼni izquvarlik birlashmasiga 1833-yilda Fransiya davlatida Ejen Fransua Vidok asos solgan, vaholanki, uning oʻzi jinoyat ishiga aloqador shaxslardan biri boʻlgan holida boʻlimni boshqargan. Bunday agentlik keyinchalik, Buyuk Britaniya va Amerikada ham paydo boʻlgan. Bu janr hozirda rivojlangan mamlakatlarda eng qadrlil va ushbu sohaga oid fan majmuidida muhim boʻlim sifatida qaraladi. Chunki, bu yoʻnalish orqali oʻquvchilar soʻzdan-soʻzni farqlash, diqqatlilik koʻnikmalarini va yuqori taʼsir kuchga ega soʻzlarni qoʻllay olish malakasini ham oʻrganishadi.

“Har bir janrning oʻziga xos qonunlari, tartib-qoidalari, tamoyillari boʻladi. Muhabbat eski narsa, lekin har bir qalb uni yangilaydi, – deganlaridek, Konan Doyldan boshlanib, Yevropa va butun dunyoga tez tarqalgan detektiv janrlarning ham oʻziga xos, faqat oʻziga xos qonuniyatlari bor, albatta”.¹ Keltirilgan fikrga qoʻshimcha tarzda aytish mumkinki, detektiv janrni yaratishda Yevropa va Amerika yozuvchilariga 25-26 taga yaqin normalar yaʼni talablar belgilab ham chiqilgan. Bunga misol qiladigan boʻlsak, jinoyatning motivini birinchi oʻringa qoʻyish, asar jinoyat sodir etilgan holatda yaʼni kichik tugun bilan boshlanishi kerakligini aytib oʻtsak boʻladi. Ammo har bir xalqning oʻz ruhiyati va asarni qabul qilishda kayfiyati boʻladi. Bu kayfiyatga monand Qalam tebratish milliylik deyiladi.

Asar milliy ruhda yozilgan boʻlsa-da, undagi bosh gʻoya nafsni jilovlashga qaratilgan boʻladi. Yozuvchi Tohir Malik taʼbiri bilan aytganda, “... nafsning kelajagi zulmdir, zulmning kelajagi esa xorlikdir. Biz ana shu oddiy haqiqatni bayon qilmoqchimiz. Badan pokligi badanga, ruh pokligi ruhga hayot bagʻishlar...”² yaʼni

detektiv ruhda yozilgan asar borki, nafs yoʻlida qilingan harakatning natijasini aniq va ayovsiz koʻrsatib oʻtishi bilan ham boshqa janrlardan ajralib turadi. Bunday keskin voqealar rivoji kitobxonni aql chigʻirigʻi bilan, yetti oʻlchab bir kesishga, muxtasar qilib aytsak mantiqni ishlatishga undaydi. Shu oʻrinda, yuqorida taʼkidlangan nafs tushunchasiga yana bir bora toʻxtalib oʻtsak, fazilatli shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf aytganlaridek; “Nafsni poklash va axloqni sayqallash dunyodagi eng muhim ishlardan sanaladi”³. Dargaqiqat, inson nafsni yoʻqota olmaydi, uni

faqatgina tarbiyalab turishi mumkin. Aynan jinoyatning uzun yo'liga poklanmagan, tarbiya ko'rmagan nafs olib borishi nazarda tutilmoqda.

Har bir asarni kitobxonni o'ziga qattiq bog'laydigan kulminatsiya ya'ni cho'qqi pallasini bo'ladi. Detektiv asarning cho'qqi pallasini - bu asardagi izquvarni, tergov xodimini o'zining ichki olamiga beradigan ko'plab savollari, o'rinli shubhalarni bir ipga marjondek chizib chiqishga urinishi deydigan bo'lsak va shu joyda "shubha" jumlasiga ulamolar nazdida nima deyilganiga qarasa, bu xususida Abu Homid G'azzoliy shunday deganlar: "Shubha haqiqatga olib boruvchi yo'ldir. Kim shubhalanmas ekan, hech narsani ko'ra olmaydi. Tushunishdan mahrum kimsa misoli so'qir kabi yo'ldan adashadi"⁴.

Ichki ishonch va alibilarga ya'ni kichik asoslarga qarab, o'z-o'ziga savol berib murojaat qilish, shubhalar ustida ishlash g'arb izquvarlik an'alarida asar, hikoya boshida, goh o'rtasida, goh oxirrog'ida bo'lishi mumkin. Bunga yaqqol misol qilib, Artur Konan Doylning "Kumush detektiv hikoyasi"dagi izquvarning monologini olsak, "Bu mantiqiy fikrlash san'ati, yangilik izlash emas, aniq tahlillar va ma'lum faktlarni saralash uchun qo'llash lozim bo'lgan hodisalardan sanaladi. Biz to'qnash kelgan fojia shu qadar jumboqli va shu qadar odamlarning qismati bilan bog'liqli, politsiya(ichki ishlar) farazlari, taxminlar, versiyalar(namunalar) ko'pligidan boshiberk ko'chaga kirib qolgan. Turli jurnalistlar va tahlilchilarning mushohadalari, shov-shuvlari vaziyatni yanada chigallashtiradi xolos. Biz aniq xulosalarga tayanib, kalavanning uchuni topishga urinib ko'rishimiz darkor"⁵.

Hikoyadagi tugunning murakkabligini, hayotning murakkabligiga ishora deb olsak bo'ladi, chunki unda murakkab bo'lgan inson yashaydi. Shu o'rinda, sharq detektiv yozuvchisi Komil Sindarovning "Tungi qotillik" detektiv qissasida butun boshli jarayon haqidagi o'y-xayollarni tartiblashda vaqtning o'rniga qarash ham muhimligi nazardan chetda qolmaydi. "Tergovchining dushmani vaqt. Vaqt unga tinchlik bermaydi, ortidan soyaday quvib kelaveradi ba'zida tuzukroq mushohada qilishga, chuqurroq o'ylab ko'rishga, nafas olishga ham bermaydi. Tergovchi bechora jonini jabborga berib, battol jinoyatning ketidan quvsa, vaqt o'lgur tergovchini quvg'inga oladi. Balki, shuning uchun ko'pgina davlatlarda jinoyat ishini tergov qilish va sudga ko'rish uchun muddat belgilanmagan. Tergovchi, sudya shoshilmasdan o'ziga maqbul muddatlarda ishni hal qiladi. Hech kim unga "ishni nega cho'zyapsan, muddatlarni buzyapsan" deb ta'na toshini otmaydi.

¹ To'xtaboyev.X. *Qimmatga tushgan xato*. T.:2019.

² T.Malik. *Murdalar gapirmaydilar*. T.: 2018, b www.ziyo.uz, B.1.

³ Shayx Muhammad Sodik Muhammad Yusuf. *Ruhiy tarbiya. 1-juzi*, T.: 2018.

⁴www.ziynet.uz.

⁵ Artur Konan Doyl. *Kumush*. T.: 2020, 50-b.

Ishni xumoridan chiqib, obdon pishiradi, aql chig'irig'idan o'tkazib, sayqallaydi. Lekin, do'ppini olib, chuqurroq mushohada qilib ko'radigan bo'lsak, bu tizimning ham o'ziga yarasha salbiy tomonlari, bizga to'g'ri kelmaydigan jihatlari bordek tuyuladi.

Negaki, jinoyat ishining uzoq muddat tergov qilinishi, sudda ko'rilishi jabrlanuvchi va boshqa manfaatdor shaxslarning g'ashini keltirishi, jinoyat izlarining yo'qolishiga, ishni issig'ida fosh etish imkoniyatlarining pasayishiga olib kelishi, tabiiy. Balki o'ta og'ir jinoyatlar uchun tergov muddatini ko'paytirib, boshqa jinoyatlar uchun sal qisqartirish lozimdir"⁶.

Detektiv yo'nalishda qalam tebratayotgan adiblarning katta yutug'i izquvarni ichki olamida mushohada qila olish, vaqtning qadriga yetish qobiliyatini o'rnak sifatida namoyon eta olishlaridadir. Chunki, oddiylik chizig'idan chiqa olmaydigan shaxslar haqida Sabohiddin Ali "Ichimizdagi shayton" asarida shunday deydi, "Ichimizda shayton yo'q... Ichimizda ojizlik bor... Tanballik bor... Irodasizlik, ilmsizlik va hammasidan qo'rqinchli bir narsa – haqiqatni ko'rishdan qochish odati bor..."⁷ inson tashqariga savol nazari bilan emas, o'ziga savol nazari bilan qarasa, ko'p chigal savollarni oqil javobini topa oladi, odam zoti boshqa zotlardan ulug' ekanligi ham aslida ichki savollarni bera olishida, o'rganish uchun ilm izlanishida, izlanish bosqichida ruhiyatini poklab borishidadir.

Tergovchidagi ilm-u salohiyat - murakkablikka, mehnatsevarlikka iliq munosabat ko'rsatishga ham ishora vazifasini o'taydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, inson miyasining og'irlik darajasi 2 kilogramm atrofida bo'ladi, aynan shu organ barchamizni o'ylashga va harakatga keltiradi. ushbu markaziy a'zoga o'z vaqtida ishlov bermasak, aqliy mehnatga undamasak, ijodiy-estetik zavqlantirmasak, u vujudimizdagi 2 kilogramm yuk bo'lishdan boshqasiga yaramay qoladi. Mirzo Abdulqodir Bedil⁸ aytganlaridek,

Fikrsiz aqlning zangi bo'ladi,
Ilm la egovla, yangi bo'ladi,
Oynadan ibrat ol, bir kun artmasang,
Ustida bir enlik changi bo'ladi.

Sir-sinoatga, mushohadaga chorlovchi detektiv janr to'liq aqlni harakatga keltira olmasa-da kitobxonni yuqorida ta'kidlagan bosqichga olib chiqish uchun yo'l

⁶ Sindarov K. Tungi qotillik. T.: 2018, b

⁷ Sabohiddin Ali. Ichimizdagi shayton. T.: 2017, b

⁸ www.edu.uz

vazifasini bajara oladi. Hozirda dunyoga mashhur Artur Konan Doyle, Agata Kristi, Feodor Dostoevskiy lardan tashqari, o'zimizning milliy ruhda va jamiyatimiz holatiga aynan mos ravishda qalam tebratgan: Xojiakbar Shayxov, Tohur Malik, O'lmas Umarbekov va ayni vaqtda qissalari bilan mashhur yozuvchi Komil Sindarovning ijodi

kitobxon ommasiga mansur bo'lmogda. Ushbu janr turida qo'llanilayotgan til xususiyatlar tilshunoslar uchun albatta muhim. Shuningdek, xulosaning yakunlovida shuni nazarda tutish kerakki, ta'kidlanayotgan janrda juda ko'p bora qo'llaniladigan aqliy hujum metodi, kitob o'qiyotgan har qanday yosh darajasidagi shaxsni bevosita qiziqтира oladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. To'xtaboyev.X. Qimmatga tushgan xato. T.:2019,
2. T.Malik. Murdalar gapirmaydilar. T.: 2018, b www.ziyo.uz, B.1
3. Shayx Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf. Ruhiy tarbiya. 1-juzdi, T.: 2018, b
4. www.ziyonet.uz
5. Artur Konan Doyl. Kumush. T.: 2020, b
6. Sindarov K. Tungi qotillik. T.: 2018, b
7. Sabohiddin Ali. Ichimizdagi shayton. T.: 2017, b
8. www.edu.uz